

IJTIMOIY TARMOQLARDA AXBOROT XURUJLARI VA TAHDIDLAR.

Andijon davlat pedagogika instituti

“Milliy g’oya ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi”

o’qituvchisi Talipov Xushnudbek Zafarovich.

Andijon davlat pedagogika instituti

“Musiqa ta’lim” yo’nalishi 1-bosqich 101-guruh

talabasi Shavkatova Kamolaxon Dilshod qizi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarda tarqaladigan axborot xurujlari va tahdidlar tahlil qilinadi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan birga ijtimoiy tarmoqlar orqali soxta yangiliklar, manipulyatsiya, kiberhujumlar va shaxsiy hayotga aralashuv kabi xavf-xatarlar yuzaga kelmoqda. Maqolada axborot xurujlarining turlari, tahdidlar va ijtimoiy tarmoqlarning roli batafsil ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, mediasavodxonlikning ahamiyati va foydalanuvchilarni axborot manipulyatsiyasidan himoya qilish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar ta’kidlanadi. Yoshlar va ta’lim muassasalarining mediasavodxonlikni oshirishdagi o‘rni ham muhim ahamiyatga ega ekanligi, shuningdek, axborot xavfsizligi sohasidagi tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy tarmoqlar, Axborot xurujlari, Soxta yangiliklar, Manipulyatsiya, Kiberhujumlar, Shaxsiy hayot, Mediasavodxonlik, Axborotni tekshirish, Tanqidiy fikrlash, Raqamli xavfsizlik.

Information Attacks and Threats on Social Media.

Annotation: This article analyzes information attacks and threats disseminated on social media platforms. With the development of information technologies, various risks such as fake news, manipulation, cyberattacks, and intrusion into personal life have emerged. The article discusses the types of information attacks, threats, and the role of social media in the spread of these dangers. It also emphasizes the importance of media literacy and the skills necessary to protect users from information manipulation. The role of youth and educational institutions in enhancing media literacy, as well as recommendations for information security, are also presented.

Keywords: Social Media, Information Attacks, Fake News, Manipulation, Cyberattacks, Personal Life, Media Literacy, Information Verification, Critical Thinking, Digital Security.

Информационные атаки и угрозы в социальных сетях.

Аннотация: В этой статье рассматриваются информационные атаки и угрозы, распространяемые в социальных сетях. С развитием информационных технологий появились различные риски, такие как фейковые новости, манипуляции, кибератаки и вмешательство в личную жизнь. В статье подробно обсуждаются виды информационных атак, угрозы и роль социальных сетей в распространении этих опасностей. Также подчеркивается важность медиаграмотности и навыков, необходимых для защиты пользователей от манипуляций с информацией. Рассматривается роль молодежи и образовательных учреждений в повышении медиаграмотности, а также даны рекомендации по информационной безопасности.

Ключевые слова: Социальные сети, Информационные атаки, Фейковые новости, Манипуляции, Кибератаки, Личная жизнь, Медиаграмотность, Проверка информации, Критическое мышление, Цифровая безопасность.

Kirish. Bugungi kunda axborot texnologiyalari jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda va bu rivojlanish ijtimoiy tarmoqlarni inson hayotining ajralmas qismiga aylantirdi. Facebook, Instagram, Telegram, TikTok, X (Twitter) kabi ijtimoiy platformalar orqali millionlab odamlar o‘z fikrlarini bildiradilar, yangiliklar tarqatadilar va ma’lumot almashadilar. Ammo bu qulayliklar bilan bir qatorda, ijtimoiy tarmoqlar orqali turli axborot xurujlari va tahdidlar ham yuzaga kelmoqda. Ayniqsa, yolg‘on ma’lumotlar tarqalishi, manipulyatsiya, kiberhujumlar va shaxsiy hayotga aralashuv bularning barchasi jamiyat va shaxs xavfsizligiga jiddiy xavf tug‘dirmoqda. Shu sababli, mediasavodxonlik ya’ni axborotni tahlil qilish, tanqidiy fikrlash va ishonchli manbalarni ajrata olish ko‘nikmasi bugungi kunning eng muhim zaruratlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Yurtboshimizning O‘zbekiston Respublikasining “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 15-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining axborot tizimlari va resurslarini himoya qilish davlat tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6007-son Farmoni hamda 2020-yil 15-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida kiberxavfsizlikni ta’minalash tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4751-son qaroriga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining muhim axborot infratuzilmasi kiberxavfsizligini ta’minalash bo‘yicha yagona davlat siyosatining yuritilishini samarali yo‘lga qo‘yish maqsadida:

1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasining muhim axborot infratuzilmasi obyektlari kiberxavfsizligini ta’minalash tartibi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasining muhim axborot infratuzilmasi obyektlarida kiberxavfsizlikning umumiyligi talablari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.¹

¹ <https://lex.uz/uz/docs/-6479190#-6479971>

Asosiy qism. Bugungi kunda o‘z geosiyosiy va geoiqtisodiy manfaatlariga erishish, xalqaro maydonda yetakchilik uchun raqobat olib borayotgan kuchlar tarafidan yurtimizga nisbatan “axborot hujumi” uyushtirilayotganligini kuzatish mumkin. Bunday chiqishlar nafaqat xorijiy ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda, balki yurtimiz radio va teledasturlarida, reklama roliklarida ham bo‘lib turibdi. Siyosatshunoslik fanidan ma’lumki, siyosat bu – kurash, manfaatlar kurashi. Qadimgi davrda davlatlararo nizolar jangga olib kelgan va ular o‘rtasidagi muammolar yechimi jang natijasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan. Biroq, davrlar o‘tib, “harbiy yechim” S.Xantingtonning “madaniy raqobat”iga aylangan bo‘lsa, bugungi kunda esa bu muammo F.Fukuyamaning “g‘oyaviy-mafkuraviy qobiq”qa o‘ralgan “axborot urushi” doirasida olib borilmoqda. Miloddan avvalgi II asrda xitoylik sarkarda Sun Szi tomonidan aytilgan: “Yuz marotaba jang qilib, yuz marotaba g‘alaba qozonish g‘alabaning a’losi emas, g‘alabaning a’losi jangga kirmasdan turib dushmanni mahv etishdir” g‘oyasi davrning dolzarb masalasiga aylanib bormoqda. Axborot urushi globallashuv jarayonining mahsuli bo‘lib, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta’sir o‘tkazishning nihoyatda o‘tkir quroliga aylanib, turfa xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini aytish o‘rinli. Albatta, bugungi kun uchun bu holat yangi emas. Insoniyat tarixida chuqur iz qoldirgan qudratli shaxslar harbiy aslahalardan ming chandon ustun turgan “axborot quroli”dan samarali foydalanib kelganlar. Ta’kidlash joizki, mazkur yo‘nalishdagi izlanishlar xorijiy mamlakatlarning qator aqliy markazlarida XX asrning 60-yillaridayoq boshlangan. Birlashgan Qirollik Bosh vaziri Uinston Cherchillning: “Haqiqat o‘z shippagini kiyguniga qadar, yolg‘on butun dunyoni kezib chiqishga ulguradi” iborasi aynan axborot urushining mazmunini belgilab beradi.

“Ommaviy madaniyat” degan niqob ostida axloqiy buzuqlik va zo‘ravonlik, individualizm, egosentrizm g‘oyalarini tarqatish, kerak bo‘lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an’ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma’naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo‘porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo‘ymaydi. Yurtimizda shaxsiyatparastlikni

kuchaytirish, jamiyatni parokanda qilish, madaniyatimizni yo‘qotishga qaratilgan axborot xuruji tizimli asosda olib borilmoqda. Mazkur jarayonlar xorijiy aqliy va tahliliy markazlar doirasida ishlab chiqilishi bilan birga, ushbu jarayonga yurtdoshlarimizning ham jalb etilishi, afsuski kuzatilmoqda. To‘g‘ri, insonlarda bir xil qadriyat va bir xil ehtiyojlar bo‘lmaydi. Forobiy fikriga qulqoq tutsak, “insonda majburiyat va mas’uliyat bo‘lishi fozil shahar”ga, aksi bo‘lsa johil shaharga olib kelishini aytadi. Insonlar esa qaysi jamiyatda yashashni afzal ko‘rishlarini tanlashi zarur bo‘ladi. Aynan shu sababli ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda Markaziy Osiyo mintaqasidagi voqealarni shishirib ko‘rsatishga urinishlar orqali muntazam axborot xuruji olib borilishi kuzatiladi. Bugungi vogelikni ilmiy tahlil qilish asosida quyidagi yo‘nalishlarda “axborot xuruji” olib borilayotganini ko‘rish mumkin:

Birinchi yo‘nalish, davlat rahbari, deputatlar, hukumat a’zolari sha’ni va faoliyatiga nisbatan xuruj;

Ikkinci yo‘nalish, olib borilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar mohiyatini tushirish, xalqning ishonchini yo‘qotishga qaratilgan intilish;

Uchinchi yo‘nalish, jamiyatni turli guruhlarga ajratish orqali defragmentatsiyalash, ularni bir-birlariga qarshi qo‘yish;

To‘rtinchi yo‘nalish, milliy va ma’naviy qadriyatlarni barbod qilish, “ommaviy madaniyat”ga asoslangan soxta qadriyatlarni singdirish.

Beshinchi yo‘nalish, huquqni muxofaza etuvchi organlar – ichki ishlar, mudofaa, xavfsizlik idoralari faoliyatiga nisbatan salbiy kayfiyatni tug‘dirish;

Oltinchi yo‘nalish, kelgusida muayyan maqsadlarni amalga oshirishi mumkin bo‘lgan shaxslarni ommalashtirish, ularni “xalq qahramonlari”ga aylantirish. Demak, axborot xurujini bartaraf etish maqsadida axborot xavfsizligini ta’minlash borasida huquqiy, tuzilmaviy va g‘oyaviy asoslarni o‘zida mujassam etgan yagona davlat siyosatini ishlab chiqishga ehtiyoj tug‘ilgan. Bu borada, axborot xavfsizligini

ta'minlash, tashqi xurujlar manbalarini aniqlash, baholash va bashorat qilish, davlat hokimiyati organlari va axborot-matbuot xizmatlari faoliyatini muvofiqlashtirish, mamlakat milliy manfaatlarining axborot sohasidagi milliy manfaatlarini kafolatli ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.²

Kiberjinoyat - bu zararli dasturlarni tarqatish, parollarni buzish, kredit karta raqamlari va boshqa bank rekvizitlarini o'g'irlash, internetdan foydalangan holda noqonuniy ma'lumotlarni tarqatish kabi jinoiy maqsadlarda odamlar tomonidan sodir etilgan harakatlar. Zararli dastur viruslarni o'z ichiga oladi, ular kompyuterga va unda saqlangan ma'lumotlarga zarar etkazishi mumkin. Shuningdek, ular internet ulanishingizni sekinlashtirishi va hatto kompyuterda o'zlarining nusxalarini global tarmoq bo'ylab do'stlaringiz, oilangiz, hamkasblaringiz va boshqalarning kompyuterlariga tarqatish uchun foydalanishi mumkin.

Trolling - bu foydalanuvchilar o'rtasida o'zaro haqorat va hokazolar bilan birga nizolarni rivojlantirish uchun internetda provokatsion maqolalar yoki xabarlarni joylashtirish.

Kiberbulling - bu ijtimoiy tarmoqdagi postlar, tezkor xabarlar, elektron pochta xabarlari va SMS ko'rinishida foydalanuvchilarga bildirilgan haqorat, haqorat yoki tahdid.

Ijtimoiy tarmoq - bu o'zingiz haqingizda ma'lumot joylashtirishingiz va boshqa foydalanuvchilar bilan ma'lumot, fotosuratlar, xabarlar va turli xil fayllarni almashishingiz mumkin bo'lgan internet platformasi. Do'stlar bilan uzoqdan muloqot qilish qobiliyati. Yo'qolgan aloqalarni va yangi tanishlarni qidirish imkonini beradi. Ijtimoiy tarmoqlardan o'z-o'zini rivojlantirish, chet tillarini o'rganish, qiziqarli kitoblarni o'qish, musiqa tinglash uchun vosita sifatida foydalanish mumkin. Ijtimoiy tarmoqlarda sizni qiziqtirgan ma'lumotlarni topishingiz mumkin bo'lgan qiziqish guruhlari mavjud, masalan, fitnes mashg'ulotlari yoki gitara darslari videolari. Ijtimoiy tarmoqlar o'quv jarayonida yordam berishi mumkin. Ularning yordami bilan

² <https://oyina.uz/uz/article/127>

ma'ruza matnlari, laboratoriya ishlari uchun topshiriqlar va boshqa foydali ma'lumotlar bilan almashishingiz mumkin. Shuningdek, ma'lum bir mavzu bo'yicha hamjamiyatga qo'shilish va tarix bo'yicha batafsil savollarni o'rganish yoki chet tilini bilishni yaxshilash mumkin. Buning uchun kerakli adabiyotlar, foto va video materiallarga havolalar mavjud, siz guruhning boshqa a'zolari bilan muammoli masalalarni muhokama qilishingiz mumkin. Xavflar, ijtimoiy tarmoqlarda nafaqat do'stlar, balki begonalar bilan ham muloqot qilish mumkin. Lekin ko'pchilik internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda muammolarga duch kelmaydi. Shunday bo'lsada Virtual dunyoda bizni qanday tahdidlar kutmoqda? Ular aldashlari, xafa qilishlari, qo'rqitishlari yoki hatto taxdid qilishlari mumkin. Shuningdek ijtimoiy tarmoqda giyohvand moddalarni iste'mol qilishga, o'z joniga qasd qilishga chaqiruvchi zararli ma'lumotlar, soxta diniy va mistik harakatlar, sektalar va boshqalar haqida ma'lumotlarga duch kelish xavfi doimo mavjud. Tarmoqda qisqa raqamga SMS to'laganingizdan so'ng taklif qilinadigan turli xizmatlarni uchratishimiz mumkin. Ko'pincha bu firibgarlikdir. Shuning uchun, begonalardan fayllarni qabul qilmasligimiz kerak, shubhali havolalarni oching, chunki buning natijasida kompyuterlar viruslar bilan zararlanishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlarda befoyda ma'lumotlar yetarli bo'lgani uchun internetda o'tkaziladigan vaqt bir necha barobar ortadi. Bularning barchasi farovonlikka, jismoniy va ruhiy salomatlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Axborot hajmi asab tizimiga salbiy ta'sir qiladi, asabiylashish va tajovuzkorlik paydo bo'ladi. Internet va ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik insonning gormonal fonini o'zgartirishi mumkin. Vaqt o'tishi bilan haqiqiy muloqot qobiliyatları yo'qoladi. Barcha muammolarni onlayn hal qilish odamni asotsial shaxsga aylantiradi. Ijtimoiy tarmoqlar nutq va imloga salbiy ta'sir qiladi. So'z boyligi, nutq va grammatik xatolar - bularning barchasi internetdagi muloqotning natijasidir. Profilni tez-tez turishdan kelib chiqadigan qaramlik xatolar yana bir kamchilikdir. Statistikaga ko'ra, u o'smirlar orasida tez-tez uchraydi va psixologiyasiga ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda zo'ravonlik, taqiqlangan g'oyalilar, pornografiya targ'iboti olib borilmoqda. Bunday sahifalarni kuzatish va blokirovka qilishiga qaramay, ular

yana paydo bo'ladi va har qanday tarzda diqqatini tortishga xarakat qiladi. Virtual suhbatdoshbizning yonimizda bo'lmaydi, lekin u "fikrlarga kirib borish" va dunyo qarashlariga ta'sir o'tkazishga qodir bo'ladi. Ekstremistik oqim vakillari o'z saflariga yangi kelganlarni jalb qilish uchun internetning barcha keng imkoniyatlaridan faol foydalanmoqdalar.

Firibgarlik - bu fuqarolarning ishonchiga asoslangan pul yoki boshqa qimmatbaho narsalarni olishning yolg'on yo'li.

Internet katta hajmdagi ma'lumotlardan foydalanish, o'zini rivojlantirish, takomillashtirish va hatto axborot mahsulotlarini yaratish imkoniyatini beradi. Ammo tarmoqdagagi ma'lumotlarning haqiqiyligini kim tekshiradi? Siz bilan bir xil foydalanuvchilar. Shunga ko'ra, siz olgan ma'lumotlarning noto'g'ri yoki zararli bo'lish ehtimolini kamaytirish uchun o'z hissangizni qo'shing. Ushbu amaliyot ma'lumotni ishonchli va ishonchsizga bo'lish mahoratingizni oshirishga yordam beradi. Internet-resursning ishonchlilik darajasini aniqlash resurs ishonchli ma'lumot manbai bo'lib, unda ishonchlilikning barcha 7 belgisi mavjud bo'lsa. Istisno hollarda, Internet-resurs shaxsiy ma'lumotlarga va bosma manbalarda nashrlarga ega bo'lgan jismoniy shaxs tomonidan yuritilishi mumkin. Agar uchta asosiy xususiyat mavjud bo'lsa, internet-resurs ishonchli manba hisoblanadi: Resurs manzili yoki resurs muallifligi, mualliflarning aloqalari, ma'lumot manbalari, manbaning to'g'riliqi, resurs maqsadi, ma'lumotlarning to'g'riliqi.

Hozir internetda tarqatilayotgan ma'lumotlarning rang-barangligi va ko'pligidan ularning qay biri to'g'ri-yu, qay biri noto'g'ri ekanini ajratib olish mushkul. Islom dushmanlari musulmonlar o'rtasida fitna chiqarish uchun internet – “o'rgimchak to'ri” dan juda ustalik bilan foydalanishmoqda. Birgina “Facebook” ijtimoiy tarmog'ida turli tillarda bir qancha guruhlar ochib, soxta g'oyalarini muntazam ravishda tarqatib, ko'paytirib borishyapti. Din nomi bilan ish yuritayotgan g'arazli kimsalar yoshlarni o'z tuzoqlariga ilintirishda internetdan ustalik bilan foydalanmoqda. O'zlarini “yaqin do'st” yoki “hidoyatga chorlovchi” sifatida tanitib, yoshlarni to'g'ri yo'ldan chalg'itmoqda. Afsuski, ko'p yoshlar islom niqobi ostida olib borilayotgan buzg'unchi

harakatlarning qurboni bo‘lib, din dushmanlari quroliga aylanib qolmoqdalar. Ular nozik chegara chizig‘ini anglamay, shunday targ‘ibotlarga uchib, o‘z dini, dindoshlari, xalqi va o‘zi tug‘ilib o‘sgan Vataniga qarshi isyon qilishgacha borib yetmoqdalar. Buzg‘unchi oqimlar o‘z sahifalarida yoritilgan fikrlarni asoslash uchun, asosan, Ibn Taymiya, Abu A’lo Ma’dudiy, Muhammad ibn Abdulvahhob, Hasan al Banno, Sayyid Qutb, Muhammad Ilyos Kandehlaviy, Taqiyuddin Nabahoniy, Abdul Qadim Zallum, Said Nursiy, Fathulla Gulen kabi qo‘shtirnoq ichidagi ulamolarning manbalaridan iqtiboslar keltirishadi. Afg‘onistonda Tolibon harakati o‘z safiga yangi a’zolarni jalb etish, erishilgan “yutuqlar”ni ovoza qilish va zarur ma’lumotlarni e’lon qilish maqsadida 2011 yilning may oyidan boshlab dunyo bo‘ylab ommalashgan “Twitter” ijtimoiy tarmog‘idan foydalana boshlagan. Vaholanki, Tolibon harakati televizor, radio singari zamonaviy texnologiyalarni mutlaqo inkor etib, o‘z a’zolarini bulardan ehtiyyot bo‘lishga qattiq buyurar edi. Hozir internetda tarqatilayotgan ma’lumotlarning rang-barangligi va ko‘pligidan ularning qay biri to‘g‘ri-yu, qay biri noto‘g‘ri ekanini ajratib olish mushkul. Islom dushmanlari musulmonlar o‘rtasida fitna chiqarish uchun internet – “o‘rgimchak to‘ri” dan juda ustalik bilan foydalanishmoqda. Birgina “Facebook” ijtimoiy tarmog‘ida turli tillarda bir qancha guruhlar ochib, soxta g‘oyalarini muntazam ravishda tarqatib, ko‘paytirib borishyapti. Terrorchilar o‘zlariga tegishli veb-sahifa va ijtimoiy tarmoqlarda “shahidlik”, “jihod”, “hijrat”, “takfir”, “xalifalik” kabi tushunchalarni buzib talqin qilish natijasida ayrim yoshlarni o‘zlarining tuzoqlariga ilintirishga muvaffaq bo‘lishayotgani achinarli hol, albatta. Shu o‘rinda mashhur olim, marhum Muhammad Said Ramazon Butiyning terrorchilar xususida aytgan quyidagi so‘zlarini keltirish lozim: “Ular bir vaqtning o‘zida biror aybi yo‘q musulmonlarni kechasi bo‘g‘izlab ketishni “shariat ruxsat bergen ish” deydilar. Ular oddiy yo‘lovchilar to‘la samolyotni ichidagi aybsiz insonlar bilan qo‘shib portlatib yuborishni ham “shariatda bor ish” deydilar. Har kim ko‘zlarini yumib, Rasululloh (sallallohu alayhi va sallam) bugun oramizda yuribdilar, deb hayol qilsin. Ul zot shunday razil ishlarga rozi bo‘lar edimi?” Muqaddas islom dinida begunoh inson qonini to‘kish buzg‘unchilikning eng ulkan ko‘rinishi hisoblanadi. Islom dini hatto

chumoliga ozor berishdan ham qaytaradi. Bunday vahshiylikni qilayotganlar dinga e'tiqod qilgani haqida qancha lof urmasin, qilgan yovuzliklari bu da'volari soxta ekanini fosh etmoqda.³

Xulosa.

XXI asr – bu axborot asri. Axborot texnologiyalarining tezkor rivojlanishi bilan bir qatorda, ijtimoiy tarmoqlar ham kundalik hayotimizda muhim o‘rin egallamoqda. Ammo bu imkoniyatlar bilan birga, ko‘plab xavf-xatarlar ham paydo bo‘ldi. Jumladan, axborot xurujlari va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqaladigan tahdidlar bugungi kunda nafaqat individual foydalanuvchilar, balki butun jamiyat, hatto davlatlar xavfsizligiga ham tahdid solmoqda.

Maqolada keltirilganidek, axborot xurujlari orqali inson ongiga ta’sir o‘tkazish, yolg‘on va manipulyativ ma’lumotlar tarqatish orqali odamlarning qarorlariga ta’sir qilish holatlari ortib bormoqda. Ayniqsa, yoshlar orasida soxta yangiliklarga ishonish, har qanday axborotni tahlil qilmasdan qabul qilish holatlari ko‘p uchraydi. Bu esa jamiyatda noto‘g‘ri qarorlar, ijtimoiy ziddiyatlar va ayrim hollarda salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shuningdek, kiberhujumlar, shaxsiy ma’lumotlarning o‘g‘irlanishi, ijtimoiy tarmoqlar orqali bo‘layotgan psixologik bosimlar kabi tahdidlar ham zamonaviy dunyoning ajralmas muammosiga aylangan. Bunday tahidlarning oldini olishda esa mediasavodxonlik asosiy himoya vositasidir.

Mediasavodxonlik – bu nafaqat axborotni o‘qish, balki uni tahlil qilish, haqiqatga mosligini aniqlash, yolg‘onni fosh qilish, axborot xavfsizligiga doir ko‘nikmalarga ega bo‘lishdir. Bu ko‘nikmalar mifik, kollej va universitet o‘quvchilari uchun ayniqsa zarur. Shu sababli, ta’lim tizimida mediasavodxonlikni mustahkamlash, bu borada

³ A.Axmedov, Q.Bazarov, X.Talipov. “Mediasavodhonlik va axborot madaniyati” fanidan o‘quv-uslubiy qo‘llanma. Andijon-2024.

yoshlar bilan ishlash, treninglar va seminarlar o'tkazish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan axborot xurujlari va tahdidlarni bartaraf etishda har bir insonning axborotga nisbatan mas'uliyatli yondashuvi, tanqidiy fikrlash qobiliyati va raqamli xavfsizlikka doir bilimlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shundagina biz ijtimoiy tarmoqlardan foydali, xavfsiz va ongli ravishda foydalanishga erisha olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. A.Axmedov, Q.Bazarov, X.Talipov. "Mediasavodhonlik va axborot madaniyati" fanidan o'quv-uslubiy qo'llanma. Andijon-2024.
2. <https://lex.uz/uz/docs/-6479190#-6479971>
3. <https://oyina.uz/uz/article/127>
4. Media va axborot savodxonligini shakillantirishning pedagogik jihatlari. O'quv-amaliy qo'llanma. Extremum-press, 2017.